

NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-fevral oylari


Xizmatlar ko'rsatishning sifati va qulayligini tubdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan keng ko'lamli tashkiliyhuquqiy chora-tadbirlar hamda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish xizmatlar sohasining jadal rivojlanishini ta'minlamoqda.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining asosiy vazifalari va yo'nalishlarini amalga oshirish jarayonida, 2018 yil yanvar- fevral oylarida bozor xizmatlari hajmi 4,7 % ga oshib, 859,1 mlrd.so'mgacha ko'paydi.

Aholi tomonidan har xil turdagi xizmat ko'rsatish turlariga bo'lgan talabning doimiy o'sishi va davlat tomonidan ushbu sohaga aloqador infratuzilmalarni (ijtimoiy, transport-kommunikatsiya, ta'lim va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan amaliy choralar xizmatlar sohasining barcha tarmoqlarini jadal rivojlanishini ta'minladi (1-rasm).

1- rasm

2018 yil yanvar-fevral oylarida alohida xizmat turlarining o'sishi



Masalan, Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari jadal rivojlanib, o'tgan 2017 yilga nisbatan 19,6 % ga oshgan. Telekommunikatsiya tarmoqlari, kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va rekonstruksiya qilish milliy dasturlarining amalga oshirilishi, simsiz telefon aloqalarning o'sishiga, uyali aloqa abonentlari va Internet tarmog'iga jamoaviy ulanish joylari sonining ko'payishiga olib kelmoqda.


Sog'liqni saqlash hamda ta'lim soxasini isloh qilinishi sog'liqni saqlash (9,6 %) va ta'lim xizmatlari (11,9 %) oshish imkonini berdi.

Hozirgi vaqtda, xizmatlar ishlab chiqarish iste'molchilarning daromadlari darajasi, didi va nimani afzal ko'rishlariga qarab tabaqalanib bormoqda.

Hajmlarning o'sishi bilan birga, bozor xizmatlarining tarkibiy nisbatlari ham o'zgardi.

2018 yil yanvar- fevral oylarida xizmatlar tarkibi

Xizmatlar umumiy hajmida yangi bozor xizmatlarining ulushi ko'paydi. Xususan, 2018 yil yanvar- fevral oylarida savdo xizmatlarining ulushi 36,9 % ni, transport xizmatlarining ulushi 20,4 % ni, moliyaviy xizmatlar ulushi 8,7 % ni, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 7,5 % ni, ta'lim sohasidagi xizmatlar 3,6 % ni, boshqa turdagi xizmatlar ulushi 21,0 % ni tashkil qildi (2-rasm).



2018 yil yanvar- fevral oylarida hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish

Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Namangan shahriga 407,2 mlrd.so'm (107,2 %) va Pop tumaniga 54,6 mlrd.so'm (102,8 %) to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning 47,4 % dan ortig'i Namangan shahriga, Pop tumani (6,4 %), To'raqo'rg'on tumani (5,5 %), Chust tumani (5,2 %), Yangiqo'rg'on tumani (5,1 %) xissasiga to'g'ri keldi.


Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish
(2018 yil yanvar-fevral oylari)

	<i>Жами</i>		
	<i>млрд.сўм</i>	<i>2017 y. yanvar-fevralga nisbatan foizda</i>	<i>Jami xizmatlar hajmiga nisbatan % da</i>
Namangan viloyati	859,1	104,7	100,0
<i>shahar:</i>			
Namangan	407,2	107,2	47,4
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	30,6	101,9	3,6
Kosonsoy	43,2	102,9	5,0
Namangan	41,0	101,4	4,8
Norin	33,3	102,1	3,9
Pop	54,6	102,8	6,4
To'raqo'rg'on	47,0	104,7	5,5
Uychi	39,2	102,7	4,6
Uchqo'rg'on	37,0	101,7	4,3
Chortoq	36,8	102,3	4,3
Chust	45,0	102,9	5,2
Yangiqo'rg'on	44,2	102,5	5,1

Xizmatlar ishlab chiqarishda kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va yirik sub'ektlarning o'ri

(2018 yil yanvar-fevral oylari)

3- rasm



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan xizmatlar ishlab chiqarish 2018 yil yanvar- fevral oylarida 623,1 mlrd.sum yoki jami hizmat korsatish hajmning 72,5 foizini, yirik korxonalar ulushi esa 27,5 foizni tashkil etdi. 2017 yil huddi shu davrda 553,3 mlrd.sum yoki jami hizmat korsatish hajmning 75,4 foizini, yirik korxonalar ulushi esa 24,6 foizni tashkil etdi.

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: B.Zununov

(69) 227-85-28